

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.04.2021.T.111.04. RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

AVLAKULOV ABDIMAJIT MEYLIYEVICH

GAZ MIQDORI YUQORI ARALASHMALARNI JOY RELYEFI
BO‘YICHA O‘TADIGAN QUVURLAR ORQALI TASHISHNING
GIDRAVLIK HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

05.09.07- Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Avlakulov Abdimajit Meyliyevich

Gaz miqdori yo‘qori aralashmalarni joy relyefi bo‘yicha o‘tadigan quvurlar orqali
tashishning gidravlik hisobini takomillashtirish.....

5

Авлакулов Абдимажит Мейлиевич

Совершенствование гидравлического расчета транспортировки высоко
газосодержащих смесей по трубопроводам, проходящим по рельефу
местности.....

23

Avlakulov Abdimajit Meylievich

Improvement of the hydraulic calculation of transportation of high-gas mixtures
through pipelines passing through the terrain.....

43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

46

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.04.2021.T.111.04. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

AVLAKULOV ABDIMAJIT MEYLIYEVICH

**GAZ MIQDORI YUQORI ARALASHMALARNI JOY RELYEFI
BO‘YICHA O‘TADIGAN QUVURLAR ORQALI TASHISHNING
GIDRAVLIK HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.09.07- Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T5537 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.kstu.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshev Sobir Samatovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Uralov Baxtiyor Raxmatullaevich
texnika fanlari doktori, professor

Rajabov Ulug'bek Mamashoevich
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/30.04.2021.T.111.04. raqamli ilmiy kengashining 2025-yil 14 07 soat 15 da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik ko'chasi 225-uy. Tel:(+99875) - 221-09-23 faks: (+99875) 224-13-95 e-mail: kstu@kstu.uz

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik ko'chasi 225-uy, Tel:(+99875)-221-09-23.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 03 07 kuni tarqatildi
(2025- yil "03" 07 daqi No 1 raqamli revestr bayonnomasi.)



R.Xujaqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

Sh.A. Latipov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., dotsent

U.U. Jonqobilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi t.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zazuriyati. Jahonda gazni qazib chiqarish va quvurlar orqali tashish, ularni begona qo‘shilmalardan tozalash uchun resurtejamkor texnologiyalar va texnik vositalarni qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida gazni qazib chiqarish va tashish bilan bog‘liq xarajatlar barchasining 75% qismi faqat tashish xarajatlariga to‘g‘ri kelishini hisobga olsak, uglevodorod xomashyosini (neft va gaz kondensati quduqlari mahsulotlari) yig‘ish va tashishning eng samarali usuli gaz va suyuqlikni, ya‘ni bir quvurli tizimni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan neft, gaz va kondensat aralashmalarini quvurlarda tashish muammosi zamonaviy gidrogazodinamika yutuqlariga asoslangan gidravlik hisob usullarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda ko‘pgina tadqiqotlar aralashma xususiyatlari va aralashmaning quvurlardagi harakati gidrodinamikasiga oid bo‘lgandigii uchun ulardan bevosita kon quvurlaridagi suyuqlik va gaz aralashmasining muhandislik hisoblarida foydalanib bo‘lmaydi. Ulardan foydalanish uchun ba‘zi soddalashtirishlarni, quvur yotqizilgan relyeflarni hisobga olishga to‘g‘ri keladi. Chunki real quvurlar gorizontol qismdan, pastga tushuvchi va yuqoriga ko‘tariluvchi uchastkalaridan tashkil topadi. Quvurning bunday uchastkalaridan oqib o‘tuvchi gaz-suyuqlik aralashmalaridan oqimning turli strukturalari yuzaga keladi. Shu sababli relyeflar bilan bog‘liq va oqim strukturasining o‘zgarishi sharoitida quvurlarda ikki fazalik muhitning gidravlik hisob usullarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada gaz-suyuqlik aralashmasini quvurlar orqali tashishda relyef bilan bog‘liq va oqim strukturasining o‘zgarishi sharoitida quvurlarda ikki fazalik muhitning gidravlik parametrlari hisobini tashkomillashtirishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda gaz qazib chiqarish va uni tashishda energiya sarfini kamaytirish, resurtejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida, jumladan “... iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft-gaz mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berilishini ta‘minlash hamda kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish orqali kimyo sanoatida milliard AQSh dollariga teng mahsulot ishlab chiqarish...” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan¹. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda jumladan tabiiy gaz va suyuq uglevodorodlarni qazib chiqarish, ularni tashishda energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash bilan birga takomillashgan gidravlik hisob usullarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning tarqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4388-son “Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta‘minlash, neft-gaz tarmog‘ini moliyaviy sog‘lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning tarqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-maydagi" Tabiiy gaz va suyuq uglevodorodni qazib chiqarish, qayta ishlash hamda realizatsiya qilish hisobini yuritish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorlari² hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. "Energetika, energotejamkorlik va muqobil energiya manbalari" ustuvor yo'nalishi darajasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Aralashmalarning quvurdagi harakatini ko'plab olimlar: A.A. Armand, Boris A.A., Lyagov A.V., Zaychenko Ye.A., Mamaev V.A., Maron V.I., Nikolaeva V., Odishariya G.E., Osinsov A.A., Pashali A.A., Sadullaev R., Sitenkov V.T., Ter-Sarkisov P.M., Umarov A.I., Uollis G., Chisolm D., Xyuit Dj., Brill, J.P., Azzopazdi B.J., Al-Sheikh, I.N., Crowe C.T., Kajchiro, M., Gray W.G. va boshqalar tomonidan batafsil tadqiq qilingan. Ular tomonidan kon sharoitida quvurlardagi gaz-suyuqlik aralashmasi harakatining matematik ifodasini yaratishga harakat qilingan. Aralashma oqimining qatlamli harakatida bosim tushishi uchun analitik formulalar taklif etilgan. Lekin kon sharoitida gaz-suyuqlik harakati quvurda strukturalar o'zgarishi, ya'ni almashunuvi sharoitida kechadi. Mualliflar tomonidan bunday jarayonni harakat differensial tenglamalari sistemasi murakkabligi sababli tekshirilmagan. M.A. Guseynzade va boshqalar quvur bo'ylab gazning nostatsionar harakatini va gaz –suyuqlik aralashmalari harakatini magistral quvurlar uchun nazariy jihatdan o'rganishgan.

Quvurda aralashma oqimining rejim xarakteristikasi asosida gidravlik hisobning asosiy parametrlari uchun analitik formulalar tavsiya etilgan. Ushbu metodika kon hududidagi quvurlar tizimi uchun sinab ko'rilgan va yaxshi natija berganligi ta'kidlanadi. Mualliflar Frud va Reynolds o'lchovsiz parametrlar va gidravlik qarshilik koeffitsientlari asosida ikki fazalik sistemaning gidrodinamik jarayonlarini modellashtirish mumkin ekanligini ko'rsatishgan. Bunda oqim strukturasi e'tiborga olinmaganligi sababli hisoblash formulalarini matematik yo'l bilan keltirib chiqarish uncha qiyinchilik tug'dirmasligini ko'rish mumkin.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Gidrotexnika inshootlari, gidroenergetika va suv ta'minoti muammolarini tadqiqot qilish" (2021-2023-yillarda) va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining "Gaz quvurining gidravlik samaradorligini oshirish orqali gazni tashishda energiya sarfini kamaytirishning instrumental usulini ishlab chiqish" (2024-2025-yillarda)" GvaGI/20-24-son xo'jalik shartnomasi mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi relyefli quvurlarda gaz va suyuqlikning birgalikdagi harakati natijasida yuzaga keladigan gidravlik jarayonlarni tadqiq qilish asosida oqim

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-maydagi" Tabiiy gaz va suyuq uglevodorodni qazib chiqarish, qayta ishlash hamda realizatsiya qilish hisobini yuritish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori

sarfi, uining turli strukturalarida bosim yo'qotilishini hisobga oluvchi gidravlik hisoblarni takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- quvurlarda gaz-suyuqlik harakati gidravlik hisobiga doir hozirgacha mavjud usullarni qiyosiy taqqoslash;

- Sho'rtan neft-gaz qazib olish boshqarmasi quduqlarida uchraydigan gaz-kondensat aralashmalarining gidravlik va fizik-kimyoviy xossalari hamda ularning kon quvurlaridagi harakati gidrodinamik xususiyatlarini o'rganish;

- gaz-suyuqlik tashuvchi quvurlar samaradorligini oshirish maqsadida relyefli quvurlarning pasaygan va ko'tarilgan joylarida to'plangan suyuqlik hajmini aniqlash va ulardan tozalashning optimal muddatlarini o'rnatish hamda quvur liniyasi samaradorligini belgilash.

- quduq va gaz yig'uvchi tarmoqlarning birgalikda ishlashi sharoitida quvurda yuzaga keladigan oqim strukturalari almashinuvi chegaralarini aniqlash asosida bosim pasayishiga doir differensial tenglamasini tanlash va quvurning real trassa profiliga ekvivalent hisob profillarini qurishga doir tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqot ob'ekti sifatida Sh o'rtan neft-gaz qazib olish boshqarmasiga qarashli 289-quduqdan yig'ish punktigacha bo'lgan quvur trassasi tanlab olindi.

Tadqiqotning predmeti kon sharoitida tarkibida gaz miqdori yuqori bo'lgan gaz-suyuqlik aralashmasi va uni tashuvchi relyefli quvurlardan iborat.

Tadqiqot usullari. Hidrodinamika tenglamalaridan, bosimli quvurlarda gaz va suyuqlik harakati gidravlikasi hisobi va matematik statistika usullaridan, hamda modellashtirishning matematik va gidravlik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- gorizontal va relyefli quvurlarda gaz-suyuqlik aralashmasi oqimining turli strukturalari inobatga olingan holda bosim yo'qotilishini hisoblash usuli takomillashtirilgan;

- quvurlarda halqali strukturadagi suyuq plyonka va gazning birgalikdagi harakati rejimida suyuq plyonka qalinligini inobatga olgan holda bosim tushishini aniqlash bo'yicha gidravlik hisob usuli takomillashtirilgan yangi bog'lanish hosil qilingan;

- gaz yig'uvchi tizimning asosiy elementi hisoblangan relyefli quvurlarda gaz-suyuqlik aralashmasining harakati jarayonida bosim yo'qotilishining oqim strukturasi, oqimning gidravlik xususiyatlarini yagona hisob tizimiga keltiruvchi matematik modeli ishlab chiqilgan;

kon sharoitida tarkibida suyuqlik miqdori kam bo'lgan gaz-suyuqlik aralashmasini tashuvchi quvurlar gidravlik hisob usuli, relyef xususiyatlarini inobatga olgan holda yig'iladigan suyuqlik hajmi va uni tozalash davriyligini aniqlash usuli takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

gorizontal va relyefli quvurlarda gaz-suyuqlik aralashmasi oqimining bosim yo'qotilishini hisoblash usuli takomillashtirilgan;

gaz yig'uvchi tizimning asosiy elementi hisoblangan relyefli quvurlarda gaz-suyuqlik aralashmasining harakati jarayonida bosim yo'qotilishining oqim strukturasi,

oqimning gidravlik hususiyatlarini yagona hisob tizimiga keltiruvchi matematik modeli ishlab chiqilgan;

quvurdagi cho'kindilar miqdorini aniqlash va quvur ichki bo'shlig'ini tozalashning optimal davriylik muddatlari aniqlangan. Relyefli quvurlarning gidravlik hisobi algoritmi va blok-sxemasi ishlab chiqilgan

kon sharoitida tarkibida suyuqlik miqdori kam bo'lgan gaz-suyuqlik aralashmasini tashuvchi quvurlar gidravlik hisob usuli, relyef xususiyatlarini inobatga olgan holda yig'iladigan suyuqlik hajmi va uni tozalash davriyligini aniqlash usuli takomillashtirilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'yilgan masalalarning aniqligiga, sifatli gidravlik usullardan foydalanilganligiga va hisobiy qiymatlarning nazariy, laboratoriya va dala sharoitidagi tadqiqotlar olib borilishi jarayonida olingan eksperimental ma'lumotlar bilan taqqoslanganligiga hamda matematik usullar va fizikaning qonunlaridan foydalanilganligiga, shuningdek, nazariy va tajriba natijalarini ushbu tadqiqot yo'nalishidagi boshqa mualliflarning natijalari bilan taqqoslanganligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati gorizontal va relyefli quvurlarda gaz-suyuqlik aralashmasi oqimining qatlamli strukturasi bosim yo'qotilishini hisoblovchi yangi formula taklif etilganligi, quvurda suyuq plyonka va gazning birgalikdagi harakati tadqiq etilishi natijasida ushbu rejimda bosim tushishini hisoblovchi formulaning ilk bor suyuq plyonka qalinligiga bog'liq holdagi sodda ko'rinishi ishlab chiqilganligi, gaz yig'ish tizimining alohida gidrodinamik modullari elementlarini yagona hisob tizimiga keltiruvchi dastur jamlamasi yaratilganligi va tarkibida suyuqlik miqdori kam bo'lgan gaz-kondensat aralashmasini relyefli quvurlar orqali tashishda quvur joylashish holatini hisobga oluvchi gidravlik bog'liqliklarning yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Sho'rtan neft-gaz qazib olish boshqarmasi quduqlarida uchraydigan gaz-kondensat aralashmalarining gidravlik va termodinamik xossalari va ularning kon quvurlaridagi harakati gidrodinamik xususiyatlarini o'rganish asosida quduq va gaz yig'uvchi tarmoqlarning birgalikda ishlashi sharoitida quvurda yuzaga keladigan oqim strukturalari almashinuvi chegaralarini aniqlash va ekspluatatsiya sharoitida quvurning real trassa profiliga ekvivalent hisob profillarini qurishga doir tavsiyalar ishlab chiqish va ularni joriy etishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yuqori gaz ulushiga ega aralashmalarni murakkab relyefli hududlardan o'tuvchi quvurlar orqali tashish jarayonini gidravlik jihatdan hisoblash usullari bo'yicha olingan natijalar asosida:

relyef bo'ylab o'tuvchi gaz-suyuqlik aralashmasini tashuvchi quvurlarning samaradorligiga dastlabki talablar tasdiqlangan (Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining 2024-yil 20-dekabrda OP 02/BO-4870-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, gaz quvurining ishlash koeffitsienti loyihaviy ko'rsatkichdan 10% ga kamaygan holatda ham, o'tkazish qobiliyatini saqlagan holda quvvat ko'rsatkichi 20,3% ga yaxshilanishiga erishilgan;

ushbu koeffitsientni 70% ga oshirishga erishish uchun tozalash jarayoni uchun optimal davriylik joriy etilgan. (Shoʻrtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining 2024 yil 20 dekabrda OP 02/BO-4870-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, gazni quvur orqali uzatish uchun zarur boʻlgan energiya sarfini 20% ga kamaytirish imkoniyati yaratilgan;

quduqlar va gaz yigʻuvchi tarmoqlarning birgalikdagi ishlashi jarayonida quvurlar ichida hosil boʻladigan oqim rejimlarining almashinuvi joriy etilgan. (Shoʻrtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining 2024 yil 20 dekabrda OP 02/BO-4870-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, quvur 10⁰ qiyaligda, 100 sm³ miqdorda suyuqlik toʻplanishi gazning oʻtkazuvchanlik qobiliyatini 5–7% ga kamaytirishi va shu bilan birga kompressor stansiyasining energiya sarfini 2–3% ga oshishiga olib kelishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari approbatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 1 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 20 ta ilmiy ishlar chop etilgan, jumladan 1 ta darslik, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shu jumladan 6 ta maqola respublika va 1 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr qilingan. Shulardan 1 tasi impakt faktori yuqori boʻlgan jurnalda, 2 ta xalqaro anjumanlarda muhokamadan oʻtgan, jumladan 1 ta maqola Skopus bazasidagi anjumanlarda chop etilgan va 4 ta EHM dasturi uchun guvohnoma olingan

Tadqiqot hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, toʻrtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining hajmi 107 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida muammoni oʻrganish uchun olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obʻekti va predmetlari tavsiflangan, Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Joy relyefi boʻyicha oʻtadigan quvurlarda gaz-suyuqlik aralashmalari oqimini gidravlik hisoblashga bagʻishlangan asosiy ishlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida joy relyefi boʻyicha oʻtadigan quvurlarda gaz-suyuqlik oqimlariga bagʻishlangan nazariy tadqiqotlar natijalari, gaz-suyuqlik oqimlarining nazariy asoslarini ishlab chiqishda hissa qoʻshgan olim va tadqiqotchilar ilmiy ishlari tahlillari yoritilgan. Ikki fazali gidrodinamika boʻyicha soʻnggi nazariy ishlar gorizontol quvurlardagi oqim bilan bogʻliq. Ushbu tadqiqotlar qozon-turbinali qurilishda, gaz-suyuqlik aralashmalarini gorizontol quvurlarda, shuningdek, murakkab relyefli quvurlarda birgalikda tashishda oqilona hisob-kitoblarni ishlab chiqish zarurati bilan ragʻbatlantiriladi. Bu tadqiqotlarga, birinchi navbatda, F.T. Agaev A.A., Armand,

A.I.Guzxov, V.A.Mamaev, G.E.Odishariya, V.T. Sitenkov, A.A.Tochilin, W.G. Gray, M.A.Styrikckarte, M.A.Stirikovich, Lokkarte-Martinellilarning ishlari taalluqlidir.


Dissertasiyaning **“Gaz-suyuqlik aralashmasi va ularning relyefli quvurlardagi harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida gaz-kondensat konlarini o‘zlashtirishdan olingan mahsulotlar xususiyatlari va tarkibi, ishlab chiqarilgan gaz va kondensat tarkibiga kiradigan alohida uglevodorodlar, azot, karbonat angidrid va vodorod sulfidining fizik-kimyoviy xossalari keltirilgan. Ushbu ma’lumotlar asosida quvurlarda gaz-suyuqlik aralashmasi oqimining harakat davomida muhitning bir necha fizikaviy modellarga, strukturalarga aylanishi aniqlanadi. O‘tkazilgan ko‘pgina tadqiqotlar natijasiga ko‘ra oqim strukturasi shakli turli-tuman bo‘lib, u aralashmadagi suyuqlik va gaz sarflari nisbatiga, bu fazalarning fizik xossalari, shuningdek quvur ko‘ndalang kesim yuzasi va uning gorizontga nisbatan joylashuviga bog‘liq bo‘lar ekan. Yuz berishi mumkin bo‘lgan strukturalar soni bir qancha bo‘lsada, biz gorizont va qiya joylashgan quvurlarda gaz-suyuqlik aralashmasi struktura ko‘rinishining biz uchun kerakli bo‘lgan hollari bilan tanishganmiz. Bunda gorizont va kam qiyalik bo‘ylab joylashgan quvurlarda pufakchalar konsentratsiyasi yuqorida zichroq bo‘ladi. Bu holat gravitatsiya kuchi ta’sirida ruy beradi. Pufakchali struktura - bu konsentratsiyali gaz. Ikkinchisi bu tiqin strukturasi, ya’ni aralashmada neft yoki kondensat nostabil bo‘lganda gaz fazasi hajmining o‘shishiga sabab bo‘ladi (1-3 rasmlarga qarang).



1-rasm. Gorizont va qiya joylashgan quvurda gaz-suyuqlik aralashmasi oqimining qatlamli strukturasi




2-rasm. Gorizont va qiya joylashgan quvurda gaz-suyuqlik aralashmasi oqimining halqalik strukturasi



3-rasm. Gorizont va qiya joylashgan quvurda gaz-uyuqlik aralashmasi oqimining tiqinli strukturasi

Aralashmada alohida gaz pufakchalari o‘zaro qo‘shilib probka (tiqin) hosil qiladi. Bu strukturada gaz va suyuqlik tiqinlari navbatma-navbat hosil bo‘lishadi.

Quvurlarning yuqoriga chiquvchi va pastga tushuvchi trassalari hisobi deb nomlangan bo‘limda kichik burchak ostida tushayotgan (pastga yo‘nalgan) va gorizontall joylashgan quvurlarda qatlamli, tiqinli va halqali, yuqoriga yo‘nalgan quvurlarda tiqinli va halqali strukturali aralashma oqimi yuzaga kelishini hisobga olgan holda. quvurlarning gidravlik hisobi to‘g‘ri chiziqli yuqorilovchi va pastga tushuvchi quvurning alohida-alohida uchastkalari uchun olib borildi va uchastkalar uchun turlicha harakat differensial tenglamalari sistemasi tuzildi (4-rasmga qarang).



4-rasm. Quvurning ko‘tariluvchi ekvivalent uchastkasi

— - Ekvivalent uchastka chizig‘i; — - Oraliq uchastka chizig‘i

Qatlamli struktura faqat gorizontall yoki nisbatan kam qiyalikda joylashgan quvurlarda yuz beradi. Bunda turli fazalar gravitatsiya kuchi ta‘sirida qatlamlarga ajratiladi: suyuqlik pastki qatlam, gaz yuqori qatlamda harakatlanadi. Bunda gaz-suyuqlik chegarasi silliq va tekis yoki uzun amplitudalik to‘lqin ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Halqalik strukturada quvur devori bo‘ylab suyuqlik qatlami, quvur markazida esa gaz fazasi harakatlanadi. Gaz egallagan markazda suyuq fazaning kichik tomchilari ham harakatlanadi. Halqalik struktura quvurda gaz fazasi juda katta bo‘lganda va aralashma tezligi yuqori bo‘lganda ruy beradi. Quvurdagi ikki fazali suyuqlik oqimining xususiyati shundaki, bu oqimning quvur devori bilan o‘ralgan chegarasidan tashqari fazalar orasida ham ichki sirt-chegara mavjud bo‘lib, u vaqtga bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi.

Quvurlardagi aralashmalar harakatining gidravlik hisobida oqimni xarakterlaydigan kattaliklarni hisoblash muhim rol o‘ynaydi. Bularning ba‘zilarini hisoblash emperik formulalarga asoslanadi.

Ikki fazali oqimni aniqlovchi muhim mezonlardan biri aralashmada gaz ulushining hajmiy sarfi β hisoblanib, u gazning hajmiy sarfi Q_2 ni aralashma hajmiy sarfi $Q_1 + Q_2$ ga nisbati sifatida qabul qilingan:

$$\beta = \frac{Q_2}{Q_{aral}} = \frac{Q_2}{Q_1 + Q_2}$$

Agar yetarlicha uzun gaz quvuridagi oqim qaralayotgan bo‘lsa, unda bosim o‘zgarishi bilan bir qatorda Q_2 va β ham o‘zgarib boradi.

Gaz ulushining hajmiy sarfi β kabi gaz-suyuqlik aralashmasining zichligi tushunchasi qo‘yidagicha aniqlanadi:

$$\rho_{aral} = \frac{G_{aral}}{Q_{aral}} = \rho_{aral}(1 - \beta) + \rho_g \cdot \beta$$

Bu yerda ρ_1, ρ_2 - lar mos ravishda quvur muhitidagi suyuqlik va gaz zichliklari.

Yana muhim parametrlardan biri gaz-suyuqlik oqimining o'xshashlik mezonlaralashmaning Frud soni quyidagi formula bilan ifodalanadi

$$Fr_{aral} = V_{aral}^2 / (gD),$$

Bu yerda V_{aral} – aralashma kesimidagi o'rtacha tezlik

$$V_{aral} = \frac{Q_{aral}}{F} = \frac{4(Q_1 + Q_2)}{\pi D^2}$$

Bu yerda F - quvurning ko'ndalang kesim yuzasi, D - quvur diametri

Quvurlarda gaz-suyuqlik oqimi davomida fazalarning nisbiy harakati kuzatiladi, bu holda quvur bo'ylab fazalar hajmiy sarflarining nisbati ham o'zgarib boradi. Natijada aralashmali quvur yuqoriga ko'tarilishida quvurda suyuq fazada tormozlanish yuz berib, og'irlik ortishiga sabab bo'ladi. Bu hodisani hisobga olish uchun haqiqiy (hajmiy) gaz ulushi (gazosoderjanie) tushunchasi kiritiladi. Bu parametr hajmiy gaz ulushi β bilan quyidagi bog'lanishga ega:

$$\varphi = \beta \frac{V_{aral}}{V_2} = \frac{F_g 2}{F} = \frac{F_2}{F_2 + F_{aral}}$$

Bu yerda $V_2 = \frac{Q_2}{F_2}$ gaz harakatining haqiqiy tezligi, F_1, F_2 - quvur kesimining mos ravishda suyuqlik va gaz egallagan ulushlari.

Yuqoriga ko'tariluvchi quvurlarda ($\alpha > 2^0$) hamisha tiqinli (probkovaya) struktura yuz berishi aniqlangan. Oqimning har bir strukturasi fazalar harakatining nisbiy tezligi va gidravlik qarshilikning qonuniyatari bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham gaz-suyuqlik aralashmasi oqimining strukturasi to'g'ri aniqlash muhim hisoblanadi. Bunda strukturani aniqlaydigan o'xshashlik mezonlaralashmaning $F_{r aral} < F_{r kr}$ bo'lsa gaz-suyuqlik aralashmasining oqimi qatlamli bo'lib, $F_{r aral} \geq F_{r kr}$ bo'lsa struktura tiqinli bo'ladi. Ma'lumki, aralashma uchun Frud soni quyidagiga teng:

$$F_{r aral} = \left[\frac{4Q}{\pi d^2} \right]^2 \frac{1}{gd}$$

Bu yerda d – quvur diametri

Frud sonining kritik qiymati quyidagiga teng;

$$F_{r kr} = \left[0,2 + \frac{2 \sin \alpha}{\lambda_s} \right] \exp(-2,5\beta) \frac{1}{(1 - \beta)^2}$$

Bu yerda $\lambda_s = 0,067 \left(\frac{158}{Re_1} + \frac{2K}{d} \right)^{0,2}$; K - quvur g'adir - budirligi, d - quvur diametri.

Bu kritik qiymatlar gaz-suyuqlik aralashmasining V^* kritik tezligiga mos kelib, bunda oniy oqim rejimi o'zgarishi tufayli bosim yo'qotilishining tubdan o'zgarishi ruy beradi.

Shunday qilib, quvurning gorizontga nisbatan tashkil qilgan burchagining kichik o'zgarishi ham quvur ish rejimining parametrlariga sezilarli ta'sir qiladi. Jumladan gaz-suyuqlik oqimining kritik tezligi o'zgarishi oqibatida oqim qatlamli rejimdan xalqalik rejimga o'tishi mumkin bo'ladi, natijada quvurda keskin bosim yo'qotilishiga sabab bo'ladi.

Dissertatsiyaning “**Kon hududidagi relyefli quvurlarda suyuqlik va gaz oqimining gidravlik hisobi**” deb nomlangan uchinchi bobi tadqiqotning dastlabki yo‘nalishi, yani jarayonning eksperimental usullariga bag‘ishlangan. Bu holat gaz-suyuqlik aralashmasining ko‘p parametrliligi va muhitning matematik modelini yaratishning murakkabligi bilan izohlanadi. Ta’kidlash joizki, hozirgacha relyefli quvurlarda gaz-suyuqlik aralashmasining strukturaviy almashinuvini hisobga olgan holdagi harakati differensial tenglamalari yechimi olinmagan. Shu sababli tenglamalar sistemasini hal etishning turli usullari tadqiqotchilar tomonidan taklif etilmoqda. Bu yechimni olish gaz-suyuqlik aralashmasini uzoqroq masofaga uzatuvchi quvurlar uchun oqim parametrlarining gidravlik hisobini bajarish hozirgi zamon EHM da ham murakkab bo‘lib qolmoqda.

Biz gaz-suyuqlik aralashmasi gidravlik hisobini bajarish uchun kondan yig‘ish punktigacha uncha uzoq bo‘lmagan masofaga tortilgan Shurtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga tegishli bo‘lgan 289-sonli quduqni ob’ekt sifatida qabul qildik. Bu yerdagi gaz quvurlari (shleflar) uzoq masofaga uzatilmagani uchun ($800\text{ m} \leq L \leq 8000\text{ m}$) aralashmalarni karakterlovchi parametrlarning o‘zgarishi uncha katta bo‘lmaydi. Ammo bu yerda ham quvurlar tortilgan joylar relyefli bo‘lganligi uchun parametrlarni hisoblashda oqim strukturasi almashinuvini e’tiborga olmaslikning iloji yo‘q. Lekin ba’zi mualliflar ishlarida oqim rejimi e’tiborga olinmagan. Gaz-suyuqlik aralashmasining kon quvurlaridagi harakatida asosan uchta struktura ko‘p uchraydi. U yoki bu strukturaning ruy berish sohasini aniqlay bilish quvurlarda gaz-suyuqlik harakati gidravlik hisobida muhim bosqich hisoblanadi. Ko‘pgina eksperimental kuzatishlarda quvurning pastga yo‘nalgan va gorizontal uchastkalarida oqimning qatlamli, tiqinli va xalqali rejimlari, yuqoriga ko‘tariladigan uchastkasida tiqinli va xalqali rejimlar ruy berishi aniqlangan.

Gaz-suyuqlik aralashmasini quvurlarda tashish jarayonning gidravlik hisobida yana bir muhim jihat, quvur yotqizilgan trassa profilini hisobga olish hisoblanadi. Barcha gidravlik hisoblar pastlovchi va yuqoriga ko‘tariluvchi to‘g‘ri chiziqli uchastkalarda bajariladi. Bu uchastkalar ko‘rinishi chizmada aks ettirilsada, u real ekvivalent trassa bilan teng qiymatli bo‘ladi.

Biz dastlab gaz-suyuqlik aralashmasining gorizontal quvurdagi harakati gidravlik hisobini bajaramiz.

Gorizontal quvurlarda gaz-suyuqlik aralashmasining bir o‘lchovli harakati quyidagi tenglamalar sistemasini bilan ifodalanadi.

$$\left. \begin{aligned} -\frac{dP}{dx} &= \frac{\lambda_1 G^2}{2gdF^2} \left[\frac{(1-\xi)^2}{(1-\varphi)\gamma_1} + \frac{\xi^2}{\varphi\gamma_2} \right] \\ [\gamma_1 V_1(1-\varphi) + \gamma_2 V_2 \varphi] F &= G = idem \\ \varphi &= \alpha\beta \end{aligned} \right\} \quad (1)$$

bu yerda λ_{aral} - aralashma gidravlik qarshiligi; G – aralashma hajmiy sarfi; d – quvur diametri; F – quvur kesimi yuzasi; g – erkin tushishi tezlanishi; $\xi = \frac{G_2}{G_1 + G_2}$ aralashmadagi gaz massasining ulushi; $\varphi = \frac{F_2}{F_1 + F_2}$ – aralashmada gazning hajmiy

(haqiqiy) ulushi; F_2 – quvurning gaz egallagan kesim yuzasi; F_1 – quvurning suyuqlik egallagan kesim yuzasi; γ_1 va γ_2 - mos ravishda suyuqlik va gaz solishtirma og'irligi

$$\varphi = \alpha\beta; \alpha = k(1 - e)^{-4,4} \sqrt{F_{r\ aral}/F_{r\ a}}; K = (1 + 4,5\bar{\mu}) - (0,14\bar{\mu}^{0,15})$$

$$\bar{\mu} \leq 0,001 \text{ bo'lganda } F_{r\ a} = 1150\bar{\mu}^{0,79}; \bar{\mu} \leq 0,001 \text{ bo'lganda } F_{r\ a} = 9,8\bar{\mu}^{0,1},$$

(1) tenglamani λ_{aral} va α larning o'rtacha qiymatlarida taqribiy integrallasak va $\lambda_{aral} = \lambda(R_e; \varepsilon) \frac{1-\varphi}{1-\beta}$ deb hisoblasak, bosim tushishi uchun quyidagi formulani hosil qilamiz

$$\Delta P = \frac{\lambda(R_e; \varepsilon) G^2 \mathcal{L}(1-\bar{z})[\bar{z}(1-\alpha)+\alpha]}{2gdF^2 \left[1 + \frac{A}{P_1 + \frac{1}{a}} - \frac{B}{P_1 + \frac{1}{a}} \right]^\alpha} \quad (2)$$

Bu yerda P_1 -quvurga kirishdagi aralashma bosimi

$$\lambda(R_e; \varepsilon) = 0,067 \left(\frac{158}{Re_{aral}} + \frac{2k}{d} \right)^{0,2}; \quad Re_{aral} = \frac{4}{\pi d} \left(\frac{G_1}{\mu_1} + \frac{G_2}{\mu_2} \right)$$

μ_1 va μ_2 – suyuqlik va gaz yopishqoqlik koeffitsienti

$$a = \rho \frac{\alpha + \bar{z}(1-\alpha)}{\bar{z}(1-\alpha)}; \quad \rho = \frac{1-\bar{z}}{3\rho_1 \cdot ZR_{ort}}; \quad A = \frac{\bar{z}(1-\alpha)}{\alpha} \cdot \frac{1}{a}; \quad B = \frac{\bar{z}(1-\alpha)+\alpha}{\alpha q}$$

Gaz-suyuqlik aralashmasining relyefli quvurlarda tiqinli strukturadagi oqimning gidravlik hisobi amalga oshirilgan bo'lib, bunda quvurning pastga yo'nalgan uchastka elementidagi oqim harakati tenglamasi qo'yidagicha bo'ladi.

$$-\frac{dp}{dx} = \frac{\lambda_{aral} G^2}{2gdF^2} \left[\frac{(1-\bar{z})^2}{(1-\varphi_p)\gamma_1} + \frac{\bar{z}^2}{\varphi_p\gamma_2} \right] - [\gamma_1(1 - \varphi_p) + \gamma_2\varphi_p] \sin \alpha_1 \quad (3)$$

Quvurning yuqoriga yo'nalgan uchastka elementidagi oqim harakati tenglamasi quyidagicha

$$-\frac{dp}{dx} = \frac{\lambda_{aral} G^2}{2gdF^2} \left[\frac{(1-\bar{z})^2}{(1-\varphi_{yu})\gamma_1} + \frac{\bar{z}^2}{\varphi_{yu}\gamma_2} \right] + [\gamma_1(1 - \varphi_{yu}) + \gamma_2\varphi_{yu}] \sin \alpha_2 \quad (4)$$

$$\text{Keltirilgan tenglamalarda } \sin \alpha_1 = \frac{Z_2 - Z_1}{\ell_1}; \quad \sin \alpha_2 = \frac{Z_3 - Z_2}{\ell_2}$$

Agar (3) va (4) tenglamalarda gaz zichligini bir xil deb hisoblasak, bu ikki tenglamani birlashtirib, quyidagi bitta tenglama hosil qilamiz:

$$-\frac{dp}{dx} = \frac{\lambda_{aral} G^2}{2gdF^2} \left[\frac{(1-\bar{z})^2}{(1-\varphi)\gamma_1} + \frac{\bar{z}^2}{\varphi\gamma_2} \right] + [\gamma_1(1 - \varphi) + \varphi\gamma_2] \frac{Z_2 - Z_1}{\ell_1 + \ell_2} \quad (5)$$

Bu tenglamani integrallashda $P_1 \leq P \leq P_3$ va $\alpha \leq x \leq \ell_1 + \ell_2$ deb hisoblash kerak bo'ladi.

Gaz-suyuqlik aralashmasining quvurdagi xalqalik strukturada bosim yo'qotilishini aniqlash deb nomlangan bo'limda laminar va turbulent suyuqlik plyonkasi va turbulent gaz oqimining birgalikdagi harakati o'rganildi. Laminar rejimda gaz oqimining harakati odatda kvadratik ishqalanish qonuni zonasida sodir bo'ladi va Darsi tenglamasi bilan tavsiflanadi, ya'ni quyidagi shaklga ega bo'ladi:

$$-\left(\frac{dp}{dx}\right)_2 = \lambda_r \frac{\rho_2}{2(R-\delta)} \cdot \frac{(\bar{\omega} - \omega_0)^2}{2}, \quad (6)$$

bu yerda; λ_2 – suyuq plyonkada gazning gidravlik qarshilik koeffitsienti; ρ_2 – gaz zichligi; $\bar{\omega}$ – gaz oqimining o'rtacha tezligi; ω_0 – gaz - suyuqlik o'rtasidagi gaz tezligi.

Shuni ta'kidlash lozimki, plyonka va gazning birgalikdagi harakatining ko'rib chiqilayotgan sxemasi suyuq plyonka bilan aloqa qiladigan gazning laminar chegara qatlamini o'z ichiga oladi. Shuning uchun plyonka va gaz o'zaro harakatidagi tezliklar bir-biriga tengdir:

$$\omega_0 = v_0 = \frac{Q_1}{\pi R \delta}$$

Chunki plyonka halqasi mavjud bo'lganda gazning o'rtacha tezligi

$$\bar{\omega} = \frac{Q_2}{\pi(R - \delta)^2}$$

bu yerda; Q_2 – gaz oqimi sarfi, u holda (6) formula gaz fazasidagi bosim gradienti uchun oxirgi ifodalarni hisobga olgan holda biroz o'zgartiriladi:

$$-\left(\frac{dp}{dx}\right)_2 = \lambda_2 \frac{\rho_2}{4\pi^2(R-\delta)} \left[\frac{Q_2}{(R-\delta)^2} - \frac{Q_1}{R\delta} \right]^2 \quad (7)$$

Shunday qilib suyuqlik plyonkasi laminar va turbulent gaz oqimining birgalikdagi harakati uchun ikkita tenglama tizimi (6) va (7) olinadi.

Plyonkaning turbulent harakat rejimida plyonka uchun Reynolds mezoni $Re_{\text{пл}}$ ning qiymati 100 dan ortishi bilan plyonkaning harakat rejimi turbulentga aylanadi. Tegishli amallarni bajargandan so'ng plyonkaning turbulent harakat rejimida quyidagi tenglamalar tizimiga ega bo'lamiz:

$$\begin{cases} \left(\frac{dp}{dx}\right)_{\text{aral}} \approx \lambda_{\text{aral}} \frac{Q_1^2 \rho_1}{16\pi^2 R^3 \delta^2} \\ \left(\frac{dp}{dx}\right)_2 \approx \lambda_2 \frac{\rho_2}{4\pi^2(R-\delta)} \left[\frac{Q_2}{(R-\delta)^2} - \frac{Q_2}{2R} \right]^2 \end{cases} \quad (8)$$

Gorizontal quvurlardagi gaz-suyuqlik aralashmasining qatlamlangan oqimi strukturasi Frud sonining kritik qiymati bo'yicha aniqlanadi, agar $F_{r \text{ aral}} < F_{r \text{ kr}}$ bo'lsa, u holda gaz-suyuqlik aralashmasining oqimi tabaqalanadi, Agar $F_{r \text{ aral}} \geq F_{r \text{ kr}}$ bo'lsa, u holda oqim tiqinlidir.

Frud sonining kritik qiymati quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$F_{r \text{ kr}} = \left[0,2 + \frac{2 \sin \alpha}{\lambda_1} \right] \exp(+2,5\beta) \frac{1}{(1 - \beta)^2}$$

Quvur liniyasidagi Δl uzunlikdagi kesimdagi bosim tushishi $\Delta P = P_1 - P_2$ oqim komponentlarining har biridagi bosimning pasayishiga teng, masalan, gaz oqimida

$$\frac{\Delta P}{\Delta l} = \lambda_2 \rho_2 \frac{8(\theta + \sin(\pi - \theta))Q_2^2}{\pi^3 \varphi^3 D^3} + \rho_2 g \sin \alpha \quad (9)$$

bu yerda λ_2 - gaz oqimining gidravlik qarshiligi koeffitsienti; D_2 - gaz oqimining gidravlik diametri.

Suyuqlik oqimi uchun gidravlik diametr tushunchasidan foydalansak, shunga o'xshash tenglamani yozishimiz mumkin

$$\frac{\Delta P}{\Delta l} = \lambda_1 Q_1 \frac{8Q_m^2(\pi - \theta)}{\pi^3 D^5(1 - \varphi)^3} + Q_1 g \sin \alpha \quad (10)$$

(9) va (10) tenglamani ikkita noma'lum algebraik tenglamalar sistemasi sifatida ko'rib chiqsak, uni yechish natijasida bir vaqtning o'zida haqiqiy gaz tarkibi φ va

bosim tushishi ΔP ni topish mumkin. Keltirilgan tenglamalar sistemasi yagona yechimga ega ekanligini ko'rsatamiz.

Keyingi bo'lim **Quvurlarda gaz-suyuqlik aralashmasining oqim strukturasi almashinuvi bilan bog'liq harakati gidravlik hisobi** deb nomlangan bo'lib, unda relyefli quvurlar pastga va yuqoriga yo'nalgan oqim uchastkalari uchun alohida-alohida gidravlik hisob bajarilishi talab qilinishi keltirilgan. Muhandislik amaliyoti uchun masalaning osonlashtirilgan (taqribiy) qo'yilishi qiziq hisoblanadi. Bu hol aniqlikni biroz pasaytirsada, ammo muhandislik hisob-kitobi uchun yaroqli bo'lgan yagona usul hisoblanadi. Undan tashqari alohida olingan uchastkalardagi hisoblashlardagi xatolik uncha katta bo'lmaganligi sababli bunday yo'l tutish muhandislik hisoblari uchun yetarli deb qabul qilinadi. Bu mulohaza ayniqsa tarkibida gaz ulushi yuqori bo'lgan aralashmalar oqimiga ko'proq taalluqli bo'ladi. Tarkibida gaz ulushi yuqori bo'lgan aralashmalar xususyatining tahlili mavjud harakat differensial tenglamalarini taqribiy integrallashdan olinadigan yechimlarni amaliyotga bema'lol qo'llash mumkinligini asoslaydi.

Dissertatsiya ishida tarkibida gaz miqdori katta bo'lgan ($0,95 \leq \beta < 1$) aralashmani tashuvchi quvurlar uchun gidravlik hisob formulalari keltirib chiqarilgan. ($\beta = \frac{Q_2}{Q_1+Q_2}$)- aralashmada gazning hajmiy sarf konsentratsiyasi β ning o'zgarish intervali chegaralanganligiga qaramay, bu sinfga konda gaz kondensat aralashmasi uzatiladigan quvurning anchagina gidravlik hisob masalalari to'g'ri keladi.

